

DABUSIYA YODGORLIGINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA AKS ETISHI

Xikmatullayev Shoxinur Negmatulla o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

shoxinurxikmatullayev@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqola ko'hna Samarqand va Buxoro shaharlari oralig'ida joylashgan Dabusiya (Dobusqal'a) yodgorligining mahalliy va xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiyalar tomonidan o'rganilishi jarayonini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida mavjud yozma manbalar, tarixiy qaydlar hamda arxeologik topilmalar tahlil qilinib, yodgorlikning hududiy rivojlanishi, mudofaa tizimi, shaharsozlik an'analari va iqtisodiy hayotda tutgan o'rni aniqlashtiriladi. Shuningdek, Dabusiya yodgorligining tarixiy manzara shakillanishdagi o'rni hamda uning mintaqaning siyosiy-madaniy taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Olingan natijalar yodgorlikning haqiqiy tarixiy qiyofasini tiklashga, shuningdek, Zarafshon vohasi qadimgi shaharlari taraqqiyoti bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini o'taydi.*

Kalit so'zlar: *Dabusiya, Tabariy, Istaxriy, Samarqand, arxeologik manbalar, rabot.*

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH OF THE DOBUSIA OBRAZ MONUMENT

ANNOTATION. *This article analyzes the process of studying the Dabusia (Dobuskala) site, located between the ancient cities of Samarkand and Bukhara, jointly conducted by archaeological expeditions both locally and internationally. The study will analyze the available written sources, historical records and archaeological finds, as well as clarify the role of the monument in territorial development, the defense system, the traditions of urban planning and economic life. At the same time, the role of the Dabusia monument in the formation of the historical landscape and its role in the political and cultural development of the region will be considered on a scientific basis. The results obtained make it possible to restore the real historical appearance of the monument, and also serve as an important source for further research on the development of the ancient cities of the Zarafshan oasis.*

Keywords: *Dabusia, Tabari, Istakhri, Samarkand, archaeological sources, works.*

KIRISH (Introduction)

Dabusiya yodgorligi ko'hna Samarqand diyorining g'arbiy qismidagi Paxtachi tumanida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida, daryoning chap irmog'ida joylashgan. Dabusiya ko'p

asrlar davomida Samarqand va Buxoro shaharlari o'rtasidagi muhim strategik ahamiyatga ega, Buyuk ipak yo'li savdo aloqalari chorrahasida joylashgan yirik iqtisodiy va madaniy markaz bo'lgan.

Yodgorlik Markaziy Osiyodagi qadimgi shaharlarga xos bo'lgan uch qismdan iborat shaklda bo'lib, ark, shahriston va rabotni o'z ichiga olgan. Ushbu qal'a-shaharning eng qadimiyoq bo'lgan qismi bu ark hisoblangan. Ark yodgorlikning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, u shahar hududining boshqa qismlaridan xandaq orqali ajratilgan. Yodgorlikning shahriston qismi esa ark va rabot oralig'idagi joylarni o'z ichiga olgan. Shahristonning janubiy hududlarining ko'p qismi mahalliy ekinzorlarga aylantirilganligi sababli, uning maydonini aniq aytilish qiyin. Rabot qismi esa yodgorlikning janubiy qismini o'z ichiga oladi va u hozirgi kunda mahalliy aholi tomonidan qabriston sifatida foydalaniladi. Rabotning stratigrafik qatlamlarini aniqlash maqsadida ikkita shurf qazilib, 1-shurf rabotning sharqiy qismida, 2-shurf esa uning g'arbiy qismida qazildi va 1-shurf 5x5 m o'lchamda bo'lib, qazishma jarayonida bu yerda o'n bitta madaniy qatlam mavjudligi aniqlandi [Бердимуродов А.Э., Токао Уно, Рахимов К.А. 2006-2007-йил: 87 б.]. Yodgorlikda dastlabki arxeologik tadqiqot ishlari 1933- yilda A.Yu. Yakubovskiy boshchiligidagi Zarafshon ekspeditsiyasi tarkibida olib boriladi. Ushbu ekspeditsiya davomida Samarqand va Buxoro viloyatlarida saqlanayotgan bir qancha yodgorliklar qatorida Dabusiya yodgorligining ham topografik rejalari yaratiladi. 1934-yilda A.Yu. Yakubovskiy va V.A. Shishkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yodgorlikning joylashish rejasini chizilib, uning shimoliy tarafida Zarafshon daryosi tomonidan yuvilgan qismida bir qancha badrablar o'rnini aniqlanadi. Shunga qaramay Dabusiya yodgorligida 2007-yilga qadar keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan [Самарқанд ёдгорликлари. III. Қўлматов, А. Бердимуродов, 2017 : 222-2224 б.]. Shuningdek, 2006-2007, 2008-2009-yillarda A.E. Berdimurodov, U. Takao, K.A. Raximovlar tomonidan, 2010-2011, 2012-yillarda A.E. Berdimurodov, U. Takao, G.I. Bagamolov, K. Raximov, A.A. Gritsinlar tomonidan keng ko'lamdagi arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Xususan, 2023-yilda A.E. Berdimurodov, A.N. Sandiboyev, hamda G'. Maxamadiyevlar tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature riviev)

Dabusiya yodgorligi to'g'risida xabar beradigan asosiy qadimiy qo'lyozma asarlar o'rta asrlar davriga tegishli bo'lgan. Xususan, o'z davrining yirik tarixchisi Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiyning "Buxoro Tarixi" nomli asarida aytilishicha, hali Buxoro shahar sifatida shakllanmagan paytda, Dabusiya shahar sifatida malum bo'lgandir deyiladi (Narshaxiy, 1991. 85-95 b.). Aynan ushbu asarda tariflanishicha, Dobus qal'a Buxoro bilan Samarqand oralig'ida joylashgan yirik harbiy qal'a bo'lib, muhim strategik ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, yodgorlik to'g'risida At-Tabariy (839-923), Qudama (X asr), Yoqubiy (X asr), Xordabek (IX asr) va Ibn al-Faqixlarning asarlarida ham bir qancha ma'lumotlar keltiriladi.

Dabusiya bir qancha tarixiy va geografik asarlarda tilga olinsada, ammo aynan yodgorlik haqida keltirilgan ma'lumotlar anchagina qisqa ko'rinishda bo'lib, u haqida keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manbalar asosan uchramaydi. Shuningdek, ma'lum manbalar qatoridan At-Tabariyning yozishmalariga ko'ra, 723-yilda Xuroson hokimi Said al-Xorashiy Amudaryodan kechib o'tgandan so'ng Dabusiya yaqinidagi Qasr ar-Rix qasrida qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin yig'ish markazi sifatida foydalanadi[Qayumov.J.113-b.]. Xususan ibn al-Asrning "al-Komil fit-Tarix" asariga ko'ra milodiy 999-1000 yillar oralig'ida Buxoroda al-Muntasir bilan Ilekxon hokimi o'rtasida jang bo'lib o'tadi va al-Muntasir Dabusiya chekinib, u yerda qo'shin to'plashi so'ngra yana janga kirishi hamda Buxoro hokimligining tormor etilishi bayon qilinadi[Ibn al-Asr.x"Al Komil fit-Tarix".176-b.]. Ko'pchilik arab mualliflari Dabusiyaning Samarqand Sog'di shaharlari qatorida sanab o'tishadi. As-Samoniylar esa Dabusiyaning Buxoroga ketishdagi kichik So'g'd shaharchasi deb o'tadi. Bundan tashqari ibn Havqal tomonidan yozib qoldirilgan manbalarga ko'ra, u Dabusiyaning Zarafshon daryosining janubida joylashib uning Arbinjondan kichikligi va unda yirik rustoqlar hamda qishloqlar yo'qligini tarif etadi. Xulosa qilib aytganda Dabusiya haqidagi VIII-XI asr manbalariga ko'ra, savdo-sotiq va hunarmandchilik yuksak rivoj topgan. Biz ushbu tilga olgan tarixiy manbalarda yodgorlikning faqatgina nomi to'grisida qisqa to'xtalishlar, aksariyatida kam sonli tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik jihatlari hamda ijtimoiy hayoti rivoji to'g'risida ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lsakda, ammo shaharning ichki tuzilishi, mudofaa tizimi, paydo bo'lishi va kengayishi kabi rivojlanish bosqichlari to'g'risida aytarli ma'lumotlar uchramaydi[Ш.Кулматов, А.Бердимуратов."Самарканд йодгорликлари".2017.223-b.]. Hozirgi vaziyatda esa ushbu ma'lumotlarni faqatgina arxeologik tadqiqotlar asosida olish mumkin.

Tahlil va natijalar (analysis and results)

Yodgorlikda dastlabki keng ko'lamli arxeologik tadqiqot ishlari olib borish jarayoni O'zbekiston-Yaponiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan 2007-yildan boshlab shahriston va rabot qismida qazishmalar olib borish rejasi tuzilishi bilan boshlandi. Ushbu ekspeditsiya tomonidan №1- qazishma yodgorlikning shahriston qismida, uning janubi sharqiy burchagida boshlanadi va bu tadqiqotlar natijasida to'rtta qurilish davriga mansub me'morchilik inshootlari qoldiqlari aniqlanadi. Xulosa qilib aytganda, yodgorlikning shahriston qismidagi qazishma jarayonining eng yuqori qatlamida XIX asr oxirlariga tegishli bo'lgan arxeologik materiallar uchrashi kuzatiladi. Qazishmaning birinchi qurilish davri esa IX-XI asrlarga tegishli bo'lib bu davrga tegishli inshootlar yaxshi saqlangan

bo'lsa, ikkinchi qurilish davri esa VII-IX asrlarga tegishlidir. Qazishmaning uchinchi qurilish davri eramizning IV-VI asrlarni o'z ichiga olsada, arxeologik ashyolarning guvohlik berishicha asosiy me'morchilik va kulolchilik rivojlangan bosqich bu to'rtinchi qurilish davri ya'ni eramizning III-IV asrlariga oid bo'lgan [Berdimuradov, Uno Takao, Raximov, 2006-2007:85-86 b]. Dobus qal'adagi yana bir yirik arxeologik tadqiqot ishlaridan biri bu 2009-2010-yillarda olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqot davomida o'rganilgan hududda bir nechta davrlarga mansub qurilish gorizontlari aniqlangan bo'lib, ularning o'zaro stratigrafik bog'liqligi shaharsozlik jarayonlari va xo'jalik faoliyati evolutsiyasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qazishmalar davomida VIII asrga oid ikki qo'shni uy aniqlanib, birinchisida xo'jalik qismlari, asosan, koridor va ombordan iborat bo'lsa, ikkinchisida esa marosim xonasi izlari bo'lib, bu yerda o'choq izlari va boshqa artefaktlar o'rni aniqlanadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot davomida g'arbiy qal'a devori ham ochib o'rganilib, devor uchta qurilish bosqichidan iboratligi aniqlanadi. Devorning balandligi 8,6 metrni tashkil qilib, devordan topilgan aksaryat g'ishtlar 25x25x4 sm o'lchamda bo'lgan [A.E. Бердимуратов, У. Такао, Г. И. Богомолов, К. Рахимов, А. А. Грицина. 2009-2010. 70-75 б]. Shuningdek, yodgorlikning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri bu tadqiqotlar davomida aniqlangan kulolchilik xumdonlaridir. Kulolchilik xumdonlarining ilk bor aniqlanishi bu 2007-yilgi arxeologik tadqiqotlarda amalga oshirilgan. 2023-yilgi qazishma jarayonlarida esa bir nechta kulolchilik xumdonlari o'rni aniqlanib ular ustida arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ularning birinchisi yodgorlikning rabot qismi janubi-sharqida aniqlangan bo'lib ushbu kulolchilik xumdoni bir yarusli, aylana shakldagi ko'rinishda bo'lgan va uning diametri 2,14 metr, saqlanib qolgan balandligi 1,22 metrni tashkil etib, u materik ustiga qurilgan va uning devori olov tasirida qizg'ish tus olib, 11 sm qalinlikka ega bo'lgan [Berdimurodov. A. E., Sandiboev A. N., Maxamadiev G'. I. 2023-yil. 105-b.] Shuningdek, ushbu tadqiqotlar davomida yodgorlikdan 9 ta shunga o'xshash xumdonlar aniqlangan. Xumdonlarning hammasi ham yaxshi saqlanmagan, ba'zilari hatto faqat bir tomon devori va pol qismidan iborat bo'lgan. Xumdonlarning umumiy jihatlariga keladigan bo'lsak, deyarli barchasida kuchli olov ta'sirida devor qismining qizarishi kuzatilsa, ko'pchiligida esa 2-4 sm dan tortib 23-25 sm qalinlikgacha bo'lgan kul qatlamiga ega bo'lgan. Ushbu xumdonlardan ko'za, kosa, simob ko'zacha, xumcha, choynak, tog'ora, qopqoq, yog'log'i kabi sopol idishlar bo'laklari qayd etilgan. Shu jumladan ushbu aniqlangan sopol idishlar turlari va ularning funksional xilma-xilligi Dabusiya shahrida maishiy ehtiyojlar bilan bir qatorda savdo-sotiq va ehtimol hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish jarayonlari mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Xususan, shunga o'xshash uy-ro'zg'or buyumlari Afrosiyob [Соколовская, 2015. 261-262.] hamda Axsikent [Анапбаев. 2013. 56-57] yodgorliklarida X-XI asrlarga tegishli bo'lgan

madaniy qatlamlarda qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan ushbu holat ham Afrosiyob va Axsikent yodgorliklari materiallari bilan qiyoslaganda, Dabusiya X-XI asrlarda mintaqaning muhim iqtisodiy va hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Dabusiya yodgorligida so'nggi yillarda keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirish jarayonlarining oxirgi bosqichi 2024- yilgi tadqiqotlarda o'z aksini topadi. Ushbu tadqiqot ishlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiya ishi tadqiqoti ob'ekti sifatida G'.Maxamadiyev tomonidan qazishma ishlari amalga oshiriladi. Ushbu ekspeditsiyalarda yetuk mutaxassis, arxeolog va etnologlar, xususan tarix fanlar nomzodi, taniqli arxeolog olimlarimizdan Amriddin Berdimurodov hamda Komil Rahimov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Alisher Sandiboyev, SamDU arxeologiya kafedrasida katta o'qituvchisi Rustam Berdiyev hamda bir nechta yosh arxeologlar bilan birgalikda 2023-2024-yillar davomida Dabusiya yodgorligida keng ko'lamli tadqiqot ishlar amalga amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar negizida yodgorlikning shahriston qismida 7 ta alohida raqamlar bilan ko'rsatilgan qazishma ishlari olib borilib, bu yerlarda aholi turmush tarzi faoliyati izlari mil.avv. III asrdan to XVII asrgacha keng doirada aholi tomonidan foydalanganligi aniqlanadi. Ushbu qazishmalar davomida shahriston qismiga tegishli bo'lgan bir nechta xo'jalik xonalari va mudofaa devorining bir qismi tadqiq etiladi. Shuningdek, ushbu ekspeditsiya faqat shahriston va uning ichki qismi mudofaa devorlari bilan cheklanib qolmay shaharning rabot qismini o'z ichiga olgan 4 ta stratigrafik qazishma ishlari olib boriladi. Shuningdek, rabotda olib borilgan tadqiqotlarda IX-XIII asrlarga tegishli pishgan g'ishtdan yasalgan va bir-biriga ulangan quvurlar tizimi aniqlanadi[G'Maxamadiyev.(phd) dissertatsiyasi avtoreferati .2024-yil.14-15 b]. Yodgorlikning rabot qismidagi hayot tarzi mill.avv. III asrdan XIII asr boshlariga qadar davom etadi. Xususan, mo'g'ullar bosqiniga qadar hayot davom etgan qismida ham qazishma ishlari olib boriladi. Yuqorida aytganimizdek, yodgorlikning janubiy hududlari aniqlanib, undan so'ng shaharning ushbu hududlarida hayot to'xtaganligini bilishimiz mumkin.

Albatta, yillar davomidagi ushbu tadqiqotlar davomida olib borilgan yodgorlikning ark, rabot va shahriston qismlaridagi keng ko'lamdagi tadqiqot ishlari natijasi o'laroq, unda ko'plab aholi turmush-tarzi, madaniyati, ishlab chiqarish an'analari, shahar iqtisodiyoti, mudofaa tizimi va arxitekturasini yoritib beruvchi bir qancha moddiy va madaniy namunalarni qo'lga kiritildi va shaharning asl tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadigan manbalarga erishildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation)

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqotlar natijalari Dabusiya (Dobusqal'a) yodgorligining Zarafshon vohasi tarixiy-geografik makonida muhim o'rin tutgan yirik shahar markazlaridan biri bo'lganligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Yozma manbalar (Narshaxiy, at-Tabariy, Ibn al-Asir, Ibn Havqal va boshqalar) hamda ko'p yillik arxeologik qazishmalarni qiyosiy tahlil qilish Dabusiya nafaqat Samarqand va Buxoro oralig'idagi strategik harbiy tayanch nuqta, balki rivojlangan shaharsozlik an'analari, hunarmandchilik va savdo munosabatlariga ega bo'lgan madaniy markaz sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorlik hududida miloddan avvalgi III asrdan to mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan uzoq tarixiy davr davomida uzluksiz hayot davom etganligi aniqlanib, Dabusiya shahri ark, shahriston va rabotdan iborat an'anaviy o'rta asr shahar tuzilmasiga ega bo'lganini tasdiqlovchi dalillar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, shahriston va rabot qismlarida aniqlangan ko'p qatlamli stratigrafiya, turli davrlarga mansub qurilish gorizontlari shahar hududining bosqichma-bosqich kengayib borganini ko'rsatadi. Topilmalar orasida aniqlangan mudofaa devorlari, turar-joy va xo'jalik inshootlari, suv ta'minoti tizimlari hamda ko'plab kulolchilik xumdonlari Dabusiya iqtisodiy hayotida hunarmandchilik, xususan kulolchilik ishlab chiqarishi muhim o'rin egallaganidan dalolat beradi. Bu jihat Dabusiya hunarmandchiligi Afrosiyob va Axsikent kabi yirik shahar markazlari bilan bir xil madaniy-iqtisodiy muhitda rivojlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, so'nggi yillardagi zamonaviy metod va texnologiyalar asosida olib borilgan tadqiqotlar Dabusiya yodgorligining tarixiy qiyofasini yanada aniqlashtirish, uning shaharsozlik taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rekonstruksiya qilish imkonini berdi. Natijada, Dabusiya Zarafshon vohasida ilk va rivojlangan o'rta asrlarda muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Umuman olganda, Dabusiya yodgorligida olib borilgan kompleks arxeologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo shahar madaniyati rivojlanishining muhim jihatlarini yoritib berib, vohaning qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бердимуратов А.Э., Токао Уно, Рахимов К.А. Дабусияда ўтказилган археологик тадқиқотлар ҳақида // Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007 года. Вып. 6. Ташкент, 2009.
2. Самарқанд ёдгорликлари. Ш.Кулматов., А. Бердимуратов. Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2017. 260 бет.

3. J. Dabusiya qal’asi tarixiy manbalarda // Innovatsion tadqiqotlarda O’zbekiston tarixining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman electron to’plami. Toshkent-2025.
4. Ibn al-asir. “Al-Kamil fi-t tarix “ полни свод истории. перевод с арабского п.с. Булгакова, дополнения и комментарии Ш.С. Камолиддина. Ташкент, Узбекистан.2006.
5. Бердимуратов А.Э., Токао Уно, Богомолов Г.И., Рахимов К.А., Грицина А.А. Изучение городища Дабусия в 2009-2010 гг. // Археологические исследования в Узбекистане 2010-2011 года. Вып. 8. Самарканд, 2012.
6. Бердимуратов А.Э., Сандибоев А.Н., Махамадиев Г.И. 2023- йилда Дабусия ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане 2023 г.13 с.
7. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII начала XIII вв.) // Археология Центральной Азии: архивные материалы. Т. 1. Самарканд: МИЦАИ, 2015.
8. Анарбаев А. Ахсикет столица древней Ферганы. Ташкент, 2013.
9. Махамадиев Г’И. Dabusiya ilk va rivojlangan o’rta asrlarda. Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2024.